

Xalqaro grantlarda qatnashish

Ilmning rivoji jamiyatning taraqqiyotini belgilar ekan, demak, bu boradagi hamkorlik, ilmiy izlanish va tajriba almashishlarning roli ham katta bo'lishi muqarrar. Xorij tajribalari mamlakatimizni eng rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishimizga imkon tug'diradi. Bu esa o'zimizning sa'yi harakatimiz, intilishimiz, innovatsion g'oyalar va turli texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash, xorijiy investorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz bilan bog'liq.

"Xalqaro grantlarda ishtirok etish tajribasi" mavzusida Berlin Gumbold universiteti katta ilmiy xodimi, PhD A.Xamidov "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti bitiruvchi kurs talabalariga Germaniyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatlari va shartlari, ilmiy izlanish yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot berdi.

Seminarda Germaniyaning Gumbold universiteti va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamkorlikda amalga oshirilayotgan qishloq va suv xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihalar to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Jumladan, 2013-2016 yillarda amalga oshirilgan **InDeCA (Designing Institutions in Transition), 2015-2017** yillarda amalga oshirilgan **NaReMaCA (Natural Resource Management in Central Asia), 2012-2015** yillarda amalga oshirilgan **SALUS, 2017-2019** yillarda amalga oshirilayotgan **BioWat (Resources management in the salinized and drought stress-endangered irrigation areas of Central Asia for adapting to climate change)** loyihalarining ahamiyati, maqsadi va vazifalari to'g'risida talabalarga atroflicha ma'lumot berdi.

Seminarda ishtirok etgan talabalar xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishning shartlari, imkoniyat va yutuqlari to'g'risida o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov